



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna Atoev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	



YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA

Shikirov Feruz Boxodirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yo'l xo'jaligi sohasini moliyalashtirish va yo'l aktivlarini boshqarishning xalqaro tajribasi tahlil qilingan. Xususan, davlat byudjeti, maxsus yo'l jamg'armalari (Road Fund), davlat-xususiy sheriklik (PPP), pullik avtomobil yo'llari (Toll Roads) kabi moliyalashtirish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida yo'l aktivlarini boshqarishning zamonaviy usullari, jumladan, hayot sikli qiymati tahlili (Life Cycle Cost Analysis), ISO 55000 aktivlarni boshqarish standarti, GIS, BIM, IoT, raqamli egizak (Digital Twin) va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida 2017–2021 yillarda yo'l xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, jumladan, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining tashkil etilishi, ichki yo'llarni rivojlantirish davlat dasturlari, tender tizimining joriy etilishi, «Yo'lqurilish» AJ faoliyati hamda sohaga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hajmining o'sishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda yo'l infratuzilmasini moliyalashtirish va yo'l aktivlarini boshqarish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yo'l xo'jaligi, yo'l aktivlari, moliyalashtirish, Road Fund, davlat-xususiy sheriklik, pullik avtomobil yo'llari, ISO 55000, GIS, BIM, IoT, Digital Twin, sun'iy intellekt, infratuzilma.

Аннотация. В статье проанализирован международный опыт финансирования дорожного хозяйства и управления дорожными активами. Рассмотрены основные механизмы финансирования, включая государственный бюджет, специальные дорожные фонды (Road Fund), государственно-частное партнёрство (PPP) и платные автомобильные дороги (Toll Roads), а также оценена их экономическая эффективность. На основе опыта США, Германии, Японии, Австралии и Великобритании исследованы современные подходы к управлению дорожными активами, включая анализ стоимости жизненного цикла (Life Cycle Cost Analysis), стандарт управления активами ISO 55000, а также применение технологий GIS, BIM, IoT, цифровых двойников (Digital Twin) и искусственного интеллекта. Кроме того, рассмотрены институциональные реформы, реализованные в Республике Узбекистан в 2017–2021 годах, включая создание Государственного комитета по автомобильным дорогам, государственные программы развития внутренних автомобильных дорог, внедрение конкурсной системы, создание АО «Yo'lqurilish» и увеличение объёмов финансирования отрасли. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы финансирования дорожной инфраструктуры и управления дорожными активами в Узбекистане с учётом международных стандартов.

Ключевые слова: дорожное хозяйство, дорожные активы, финансирование, Road Fund, государственно-частное партнёрство, платные автомобильные дороги, ISO 55000, GIS, BIM, IoT, Digital Twin, искусственный интеллект, инфраструктура.

Abstract. This article examines international experience in financing the road sector and managing road assets. It analyzes key financing mechanisms, including state budget allocations, Road Funds, Public–Private Partnerships (PPP), and Toll Roads, with particular emphasis on their economic efficiency. Based on the practices of the United States, Germany, Japan, Australia, and the United Kingdom, the study explores modern road asset management approaches, including Life Cycle Cost Analysis (LCCA), the ISO 55000 asset management standard, and the application of Geographic Information Systems (GIS), Building Information Modeling (BIM), the Internet of Things (IoT), Digital Twin technology, and Artificial Intelligence (AI). In addition, the paper reviews institutional reforms implemented in the Republic of Uzbekistan during 2017–2021, including the establishment of the State Committee for Automobile Roads, national programs for the development of internal road infrastructure, the introduction of competitive procurement mechanisms, the establishment of Yo'lqurilish JSC, and the expansion of public investment in the road sector. Based on the findings, practical recommendations are proposed to improve the financing of road infrastructure and the road asset management system in Uzbekistan in line with international best practices.

Keywords: road sector, road assets, financing, Road Fund, Public–Private Partnership, Toll Roads, ISO 55000, GIS, BIM, IoT, Digital Twin, Artificial Intelligence, infrastructure.



KIRISH

Yo'l xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik infratuzilma tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ekspluatatsiya qilishning samaradorligi barqaror moliyalashtirish tizimi hamda zamonaviy yo'l aktivlarini boshqarish (Road Asset Management) mexanizmlariga bog'liq. Bugungi kunda ko'plab davlatlar xarajatlarni qisqartirish, xizmat sifati va yo'llarning xizmat muddatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik (PPP), maxsus yo'l jamg'armalari va natijaga asoslangan boshqaruv usullarini keng qo'llamoqda.

Avtomobil yo'llari har qanday mamlakatning iqtisodiy o'sishi, transport-logistika tizimining samaradorligi, hududlar o'rtasidagi integratsiya, savdo-iqtisodiy aloqalar va investitsiya muhitini rivojlantirishning asosiy infratuzilma omillaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yo'l infratuzilmasining uzoq muddatli barqarorligi nafaqat yangi yo'llarni qurish, balki mavjud yo'l tarmog'ini samarali moliyalashtirish, texnik holatini muntazam nazorat qilish hamda yo'l aktivlarini ilmiy asosda boshqarishga ham bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida Road Asset Management (RAM) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, avtomobil yo'llari davlatning strategik aktivlari sifatida qaraladi va ularning butun hayot sikli davomida iqtisodiy samaradorligini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Bunda qurilish, ekspluatatsiya, profilaktik ta'mirlash, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari yagona boshqaruv tizimi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda avtomobil yo'llari sohasini isloh qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, respublikada avtomobil yo'llari bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa sohada markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirish, investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirish va yagona texnik siyosat yuritish imkonini berdi.

Shuningdek, mamlakat tarixida birinchi marta 2017 yildan boshlab ichki yo'llarni rivojlantirish davlat dasturlari qabul qilinib, mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llari va ichki ko'chalarni ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish ishlari tizimli ravishda amalga oshirila boshlandi.

Yana bir muhim institutsional yangilik sifatida respublikaning barcha hududlarida ichki yo'llarga buyurtmachi xizmati tashkil etildi. Bu tizim loyihalashtirish, qurilish va ta'mirlash ishlarida nazoratning kuchayishiga, buyurtmachi va pudratchi munosabatlarining shaffoflashishiga xizmat qildi.

Shu bilan birga, yo'l qurilishi sohasida raqobat muhitini shakllantirish maqsadida qurilish, rekonstruksiya, ta'mirlash va loyihalash ishlarini amalga oshirish faqat tender savdolari orqali amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa davlat mablag'laridan samarali foydalanish, qurilish sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokida amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalarida milliy pudratchilar ishtirokini kengaytirish maqsadida «Yo'lqurilish» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Uning tarkibiga Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi 30 ta yo'l qurilishi va pudrat tashkiloti birlashtirildi. Bu esa milliy qurilish kompaniyalarining xalqaro tenderlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yo'l infratuzilmasini moliyalashtirish va aktivlarni boshqarish masalalari xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Ko'plab olimlar yo'l tarmog'ini davlatning eng muhim iqtisodiy aktivlaridan biri sifatida baholaydilar.

World Bank ekspertlari fikri. Jahon banki mutaxassisleri Ian G. Heggie va Piers Vickers o'zlarining Commercial Management and Financing of Roads asarida shunday ta'kidlaydilar:

“Barqaror yo'l infratuzilmasi uchun eng muhim shart — yo'ldan foydalanuvchilar to'lovlari asosida shakllanadigan mustaqil va shaffof yo'l moliyalashtirish tizimini yaratishdir.”

Ularning fikricha, Road Fund modeli davlat byudjetiga ortiqcha yuk tushirishning oldini oladi va yo'llarning uzoq muddatli texnik holatini saqlash imkonini beradi.

David Levinson yondashuvi. Minnesota universiteti professori David Levinson transport infratuzilmasi iqtisodiyotini tahlil qilib, quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Avtomobil yo'llari faqat transport obyekti emas, balki iqtisodiy o'sish, mehnat bozori integratsiyasi va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi kapital aktiv hisoblanadi.”

Bu yondashuv yo'llarga sarflanadigan mablag'ni xarajat emas, balki kelgusi iqtisodiy daromad keltiruvchi investitsiya sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Haas va Hudson nazariyasi. Yo'l aktivlarini boshqarish sohasidagi taniqli olimlar Ralph Haas, W. Ronald Hudson va John Zaniewski Modern Pavement Management asarida quyidagicha ta'kidlaydilar:



“Profilaktik ta'mirlash o'z vaqtida amalga oshirilsa, keyingi rekonstruksiya xarajatlari bir necha barobar kamayadi.”

Ular yo'l qoplamasining texnik holatini muntazam monitoring qilish va qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilishni Road Asset Management tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yo'l xo'jaligi sohasini moliyalashtirish hamda yo'l aktivlarini boshqarishning xalqaro tajribasini o'rganish, uning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish va O'zbekiston Respublikasida mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan kompleks tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini infratuzilmani moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik (PPP), yo'l aktivlarini boshqarish (Road Asset Management), davlat moliyasi, investitsiyalar samaradorligi va transport iqtisodiyoti sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Xususan, Ian G. Heggie, Piers Vickers, David Levinson, Ralph Haas, W. Ronald Hudson, E. R. Yescombe hamda OECD, World Bank, Asian Development Bank (ADB), European Investment Bank (EIB) va PIARC (World Road Association) materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi: Qiyosiy tahlil (Comparative Analysis). Ushbu usul orqali AQSH, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya davlatlarida yo'l xo'jaligini moliyalashtirish hamda yo'l aktivlarini boshqarish amaliyoti O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. Qiyosiy tahlil natijalari asosida milliy sharoitga mos keluvchi ilg'or mexanizmlar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yo'l xo'jaligini yagona iqtisodiy tizim sifatida baholash maqsadida tizimli tahlil usuli qo'llanildi.

Bu usul orqali moliyalashtirish manbalari, investitsiyalar, qurilish, ekspluatatsiya, ta'mirlash va yo'l aktivlarini boshqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi.

O'zbekistonda 2017 yildan keyin amalga oshirilgan institutsional islohotlar, jumladan, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining tashkil etilishi, ichki yo'llarga buyurtmachi xizmati joriy qilinishi, tender tizimining rivojlanishi va «Yo'lqurilish» AJ faoliyati institutsional yondashuv asosida baholandi (1-jadval).

1-jadval.
2022-2025 YILLARDAGI AVTOMOBIL YO'LLARIDAGI XARAJATLAR TURLARI

Xarajat turlari	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Umumiy foydalanishdagi yo'llar uchun jami byudjet xarajatlari, shu jumladan:	4,8 trln so'm	5,7 trln so'm	6,6 trln so'm	7,6 trln so'm
Ekspluatatsiya va joriy ta'mirlash	2,1 trln so'm	2,9 trln so'm	3,6 trln so'm	4,6 trln so'm
Jami xarajatdagi ulushi	45 %	50 %	55 %	60 %
Qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, asbob-uskunalar xarid qilish	2,6	2,9	3,0	3,0

1-jadvalda keltirilgan avtomobil yo'llaridagi xarajatlar turlarining tahliliga ko'ra, 2022–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash va rivojlantirish uchun davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu mamlakatda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yo'llar sifatini yaxshilash hamda harakat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi.

2022 yilda avtomobil yo'llari sohasiga jami 4,8 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2023 yilda 5,7 trillion so'mga, 2024 yilda 6,6 trillion so'mga, 2025 yilda esa 7,6 trillion so'mga yetgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrda byudjet mablag'lari 2,8 trillion so'mga yoki 58,3 foizga oshgan. Bu davlat tomonidan yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya siyosati izchil davom ettirilayotganligini anglatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil yo'llari mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya, transport-logistika tizimining samaradorligi va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim strategik infratuzilma hisoblanadi. Shu bois yo'l xo'jaligini moliyalashtirish va yo'l aktivlarini samarali boshqarish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida AQSH, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, Fransiya va Buyuk Britaniya tajribasi tahlil qilinib, mazkur mamlakatlarda yo'l xo'jaligi asosan davlat byudjeti, maxsus Road Fund, davlat-xususiy sheriklik (PPP), pullik avtomobil yo'llari (Toll Roads) va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga moliyalashtirilishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda asosiy e'tibor yangi yo'llar qurishdan ko'ra mavjud yo'l tarmog'ini saqlash, profilaktik ta'mirlash va aktivlarning xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan. Bu esa Road Asset Management, Life Cycle Cost Analysis (LCCA) va ISO 55000 standartlari asosida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda avtomobil yo'llari sohasida keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirildi. Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining tashkil etilishi, tender tizimining joriy qilinishi, «Yo'lqurilish» aksiyadorlik jamiyati faoliyatining yo'lga qo'yilishi va davlat investitsiyalarining o'sishi sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2022–2025 yillar tahlili umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari uchun davlat byudjeti xarajatlari 4,8 trln so'mdan 7,6 trln so'mgacha, ya'ni 58,3 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, ekspluatatsiya va joriy ta'mirlash xarajatlari 2,1 trln so'mdan 4,6 trln so'mgacha, ya'ni 119 foizga ko'paygan. Natijada mazkur xarajatlarning umumiy byudjetdagi ulushi 45 foizdan 60 foizgacha oshgan. Bu esa mamlakatda profilaktik ta'mirlash va yo'l aktivlarini saqlashga ustuvor ahamiyat berilayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish, yo'l aktivlarining yagona elektron reyestrini shakllantirish, aktivlarni hayot sikli asosida boshqarish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. – Toshkent, 2013.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.
5. Keynes J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
6. Mankiw N. G. *Macroeconomics*. – New York: Worth Publishers, 2021.
7. Mishkin F. S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. – Pearson Education, 2022.
8. Bodie Z., Kane A., Marcus A. *Investments*. – New York: McGraw-Hill Education, 2021.
9. Ross S. A., Westerfield R., Jaffe J. *Corporate Finance*. – New York: McGraw-Hill, 2022.
10. World Bank. *World Development Indicators Database*.
11. International Monetary Fund (IMF). *World Economic Outlook Database*.
12. OECD. *Foreign Direct Investment Statistics*.
13. Asian Development Bank. *Asian Development Outlook*.
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti.
16. World Bank rasmiy ma'lumotlar bazasi.
17. International Monetary Fund (IMF) rasmiy sayti.
18. UNCTAD rasmiy sayti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>